

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI  
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**

**«KELISHILDI»**

Respublika o'рта tibbiyot va  
farmasevtika xodimlari  
malakasini oshirish va ularni  
ixtisoslashtirish markazi



chun qo'shni xay'at raisi  
L. X. Musadjanova  
«12» dekabr 2025 y.

**«TASDIQLAYMAN»**

Respublika o'рта tibbiyot va  
farmasevtika xodimlari malakasini  
oshirish va ularni ixtisoslashtirish  
markazi direktori



L. X. Musadjanova  
«12» dekabr 2025 y.

**Bilimlar sohasi: Sog'liqni saqlash**

## **Sterilizatsiya hamshirasi**

(sikli bo'yicha ixtisoslashtirish guruhlariga uchun)

**O'QUV DASTURI**

**(216 -kredit )**

**Toshkent – 2025 yil**

**TUZUVChiLAR:**

L.X.Musadjanova

Respublika o'рта tibbiyot va farmasevtika  
xodimlari malakasini oshirish va  
ularni ixtisoslashtirish markazi  
direktori, t.f.d. professor

D.A.Dexqonova

Respublika o'рта tibbiyot va farmasevtika  
xodimlari malakasini oshirish va  
ularni ixtisoslashtirish markazi Farg'ona  
filiali o'quv ishlari bo'yicha  
direktor o'rinbosari

N.A.Shoislomova

Respublika o'рта tibbiyot va farmasevtika  
xodimlari malakasini oshirish va  
ularni ixtisoslashtirish markazi o'qituvchisi

**TAQRIZChiLAR:**

Z.Z.Imamova

RO'TFXMO va IM o'quv ishlari  
bo'yicha direktor o'rinbosari

R.N.Maxmudova

Respublika ixtisoslashgan ftiziatriya  
va pulmonologiya ilmiy amaliy  
tibbiyot markazi MSB bosh hamshirasi

O'quv dasturi Respublika o'рта tibbiyot va farmasevtika xodimlari  
malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida  
ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 9 » 12.20.25.y.



Pedagogik kengash raisi

bayonnoma № 5

L.X.Musadjanova

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi, muhokama qilindi,  
tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 12 » 12.20.25.y.

bayonnoma № 5

## 1. Kirish

Mazkur o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasida o'rta tibbiyot xodimlarini qayta tayorlash, ixtisoslashtirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizimni yaxshilash maqsadida yaratilgan. O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19 may 2021 yildagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari" PQ-5117 sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli "O'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo'yiladigan Davlat talablari" ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Dasturda o'quv fanining mazmuni, uni o'zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e'tiborga olingan. Dastur "Sterilizatsiya hamshirasi" yo'nalishini o'quv rejasi asosida tayyorlangan bo'lib, Respublika davolash profilaktika muassasalari sterilizatsiya bo'limlarida faoliyat olib borishni rejalashtirgan "Davolash ishi", "Hamshiralik ishi", "Akusherlik ishi", "Tibbiy profilaktika ishi" bo'yicha mutaxassisligini tasdiqlovchi hujjati bo'lgan o'rta tibbiyot xodimlarini 216 kredit ixtisoslashtirish uchun mo'ljallangan. Dastur fanlar modullariga ajratilgan bo'lib: kasbiy rivojlanish modulida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2025 yil 15-avgustdagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xodimlarning bilim va ko'nikmalarini yanada oshirish haqida" 255-sonli buyrug'i ijrosini bajarish maqsadida "Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish" moduli kiritildi. Dasturda o'quv fanining mazmuni, uni o'zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e'tiborga olingan. O'quv dasturda fanlar modullariga ajratilgan bo'lib, kasbiy rivojlanish moduli fanlari hamda mutaxassislik fanlar bo'yicha ta'lim olayotganlarning har tomonlama kasbiy, ma'naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm-fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar kiritilib, tibbiy ta'limda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo'limlarni ketma-ketligini ta'minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o'quv materiallarini qamrab olgan.

## **1.1. Maqsad:**

O'qish natijasida o'rta tibbiyot xodimlarining mavjud kompetensiyalarini takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko'nikmalarni egallash va kasbiy darajasini oshirish. Davolash profilaktika muassalarining sterilizatsiya bo'limlarida faoliyat olib borishdagi bilimlarini zamonaviy ma'lumotlar bilan ularning malakaviy xarakteristikasiga mos holda o'qitish. Ular faoliyatini yanada takomillashtirish, kasbiy majburiyatlarni amalga oshirishda mavjud standart va protokollar asosida ishlashga o'rgatish, bilimlarini hozirgi zamon talablariga mos ravishda yangilash va ularni amaliyotga joriy qilish holatida tayyorlash, sterilizatsiya fanidan nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallashga qaratilgan.

## **1.2. Vazifalar:**

- Tinglovchilarni sterilizatsiya ishlarini tashkil etishning huquqiy-meyoriy asoslari bilan tanishtirish.
- sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va meyoriy hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay olishga o'rgatish;
- Infeksiya nazorati va nozokomial infeksiyalarning oldini olish bo'yicha bilimlarini shakllantirish.
- Dezinfeksiya va sterilizatsiya usullari, vositalari va texnologiyalarini o'rgatish.
- Tibbiy asbob-uskunalarini sterilizatsiyaga tayyorlash (oldingi tozalash, yuvish, quritish, qadoqlash) ko'nikmalarini rivojlantirish.
- Bug'li, quruq issiqlik, kimyoviy, gazli va past haroratli sterilizatsiya usullaridan xavfsiz foydalanishni o'rgatish.
- Sterilizatsiya sifatini fizik, kimyoviy va biologik usullar orqali nazorat qilishni o'rgatish.
- Sterilizatsiya jarayonlarini hujjatlashtirish, hisobga olish jurnallarini to'g'ri yuritish ko'nikmalarini shakllantirish.
- Mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish qoidalariga rioya qilishni ta'minlash.
- Tinglovchilarda mas'uliyat, aniqlik va sanitariya madaniyatini shakllantirish.
- Amaliy mashg'ulotlar orqali mustaqil ishlash va jamoada hamkorlik qilish qobiliyatini rivojlantirish.
- zamonaviy klinik protokollar, tibbiyot sohasidagi yangiliklar, va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida amaliy ko'nikmalarini shakllantirish;
- etika va deontologiyaning zamonaviy jihatlarini shakllantirish;
- sterilizatsiya bo'limi turlari, davolash-profilaktika muassasalari markaziy sterilizatsiya bo'limiga qo'yilgan sanitar-gigiyenik talablar bilan tanishtirish;
- sterilizatsiya bo'limini tuzilishi, jihozlanishi va ishlash tartibi bilan tanishtirish;
- MSBning asbob va anjomlar bilan jihozlanish me'yorlarini o'rgatish;
- aseptika va antiseptika turlari hamda zamonaviy antiseptik moddalar guruhlari bilan ishlashga o'rgatish;
- zamonaviy zararsizlantirish standartlari bilan tanishtirib, ular asosida amaliy ko'nikmalarini shakllantirish;

- avtoklavdan foydalanishning umumiy qoidalari va avtoklav bilan ishlashda texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilish muhimligini ongiga singdirish;
- davolash profilaktika muassasalarda dezinfeksiya va sterilizatsiya qilish tadbirlarini tashkil etish qobiliyatini shakllantirish;
- sterilizatsiyaning zamonaviy usullarini qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish va mukammallashtirish;
- SHII oldini olishdagi asosiy chora-tadbirlar va o'rta tibbiyot xodimlarini "avariya holatlari"da amalga oshiradigan ehtiyot chora-tadbirlar ketma-ketligi bilan tanishtirish.

### **1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):**

O'quv dasturi davolash profilaktika muassasalari sterilizatsiya bo'limlarida faoliyat olib borishni rejalashtirayotgan "Davolash ishi", "Hamshiralik ishi", "Akusherlik ishi" va "Tibbiy profilaktika ishi" bo'yicha mutaxassisligini tasdiqlovchi xujjati bo'lgan o'rta tibbiyot hodimlarini "Sterilizatsiya hamshirasi" yo'nalishi bo'yicha 216 kredit ixtisoslashtirish uchun mo'ljallangan.

### **1.4. O'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:**

- Tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan, notiqlik san'atining asoslarini amaliyotda qo'llay olishi;
- amaldagi meyoriy hujjatlar bilan ishlash, soha bo'yicha zamonaviy yutuqlardan xabardor bo'lib, uni amalda qo'llay olish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borish, yangi axborotlarni o'rganish, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishi;
- kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash va ularni amalda qo'llay olishi;
- kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish, sog'lom psixologik muhitni yarata olish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;
- kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

### **1.5. Dasturning dolzarbligi:**

Hozirgi kunda tibbiy muassasalarda infeksiya nazorati va bemorlar xavfsizligini ta'minlash sog'liqni saqlash tizimining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Statsionar va ambulator sharoitlarda tibbiy asbob-uskunalaridan foydalanish jarayonida hamshiralarning kasbiy salohiyati, amaliy ko'nikmalari va meyoriy hujjatlarni bilish darajasiga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Zamonaviy sterilizatsiya texnologiyalari, yangi dezinfeksiya vositalari, avtomatlashtirilgan avtoklavlar va nazorat indikatorlarining joriy etilishi ushbu sohada ishlovchi xodimlardan doimiy ravishda bilim va malakasini yangilab borishni talab qiladi. Mazkur o'quv dasturi sterilizatsiya hamshiralarini amalda

qo'llanilayotgan xalqaro va milliy sanitariya-epidemiologik talablar, infeksiya nazorati standartlari asosida tayyorlashga qaratilgan bo'lib, tinglovchilarda:

- sterilizatsiya jarayonlarini to'g'ri tashkil etish,
- tibbiy asboblarni sterilizatsiyaga tayyorlash,
- sterilizatsiya sifatini nazorat qilish,
- hujjatlashtirish va hisobga olishni to'g'ri olib borish kabi muhim kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradi.

Shuningdek, dastur tibbiy muassasalarda bemorlar va tibbiy xodimlar salomatligini muhofaza qilish, infeksiyon xavflarni kamaytirish hamda tibbiy xizmat sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, «Sterilizatsiya hamshirasi» o'quv dasturi amaldagi sog'liqni saqlash tizimi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda dolzarb, o'z vaqtida va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

**1.6. Dastur hajmi:** 216 kredit (kuniga 6 soat, haftada 36 kredit).

**1.7. O'qish shakli:**

- kunduzgi - o'qish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy / a'nanaviy o'qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

**1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi:**

Mashg'ulotlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi" 160-sonli buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi hamda amalga oshiriladi.

Mashg'ulotlar 9<sup>00</sup>da boshlanib, 13<sup>40</sup> da tamom bo'ladi. Tushlik - 30 daqiqa.

**1.9. O'qish tugagandan so'ng beriladigan hujjat:** o'quv kursni to'liq o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga "Sterilizatsiya hamshirasi" yo'nalishi bo'yicha 216 kredit ixtisoslashtirishdan o'tganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

## **2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI**

**2.1. Rejalashtirilayotgan ta'lim natijalaridan so'ng takomillashtirilishi (yangilanishi) lozim bo'lgan kasbiy kompetensiyalar:**

O'quv dasturini o'zlashtirish natijasida tinglovchi quyidagi kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim:

- Tashkiliy-meyoriy kompetensiyalar
- sterilizatsiya faoliyatini amaldagi sanitariya-epidemiologik meyorlar va ichki buyruqlar asosida tashkil etish;
- sterilizatsiya hamshirasining lavozim yo'riqnomasiga muvofiq ish olib borish;
- infeksiya nazorati bo'yicha meyoriy hujjatlarni qo'llash.
- Infeksiya nazorati kompetensiyalari
- nozokomial infeksiyalarning oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish;
- infeksiya tarqalish yo'llarini aniqlash va cheklash;
- aseptika va antiseptika qoidalariga qat'iy rioya qilish.
- Dezinfeksiya kompetensiyalari
- dezinfeksiya usullari (mexanik, kimyoviy, fizik)ni to'g'ri tanlash va qo'llash;
- dezinfeksiya vositalarini tayyorlash, konsentratsiya va ekspozitsiya vaqtiga

- rioya qilish;
- dezinfeksiya jarayonida xavfsizlik qoidalariga amal qilish.  
Sterilizatsiya kompetensiyalari
  - bug‘li, quruq issiqlik, kimyoviy, gazli va past haroratli sterilizatsiya usullarini qo‘llash;
  - avtoklav va boshqa sterilizatsiya uskunalari bilan xavfsiz ishlash;
  - sterilizatsiya rejimlarini to‘g‘ri tanlash va saqlash.
  - Asboblarni sterilizatsiyaga tayyorlash kompetensiyalari
  - tibbiy asboblarni qabul qilish, oldingi tozalash (PSO), yuvish va quritish;
  - sterilizatsiya uchun qadoqlash materiallarini to‘g‘ri qo‘llash;
  - markirovka va sterilizatsiya muddatlarini belgilash.
  - Nazorat va sifatni ta‘minlash kompetensiyalari
  - sterilizatsiya jarayonini fizik, kimyoviy va biologik usullar orqali nazorat qilish;
  - indikatorlar bilan ishlash va natijalarini baholash;
  - nosozliklar va kamchiliklarni aniqlash hamda bartaraf etish.
  - Hujjatlashtirish va hisobga olish kompetensiyalari
  - sterilizatsiya va dezinfeksiya jurnallarini to‘g‘ri yuritish;
  - hisobot hujjatlarini rasmiylashtirish;
  - tekshiruvlar uchun hujjatlarni tayyorlash.
  - Mehnat muhofazasi va xavfsizlik kompetensiyalari
  - mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish;
  - shaxsiy himoya vositalaridan to‘g‘ri foydalanish;
  - favqulodda holatlarda to‘g‘ri harakat qilish.
  - Kasbiy axloq va jamoada ishlash kompetensiyalari
  - kasbiy etika va deontologiya talablariga rioya qilish;
  - jamoada samarali muloqot qilish;
  - yuqori mas‘uliyat va intizomni saqlash.
  - o‘z-o‘zini baholash, tanqidiy tahlil qilish va to‘g‘ri qarorlarni qabul qilish, onabolalar sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash doirasida, aholi orasida tibbiy madaniyat, sog‘lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ‘ibot tadbirlarni olib borish, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni keng tadbiq etish;
  - hamkasblar, hamshiralar va kichik tibbiy xodimlar, bemorlar va qarindoshlar bilan muloqotda tibbiy faoliyatning ahloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirishga tayyorligi va amalga oshirishi;
  - intizomiy, ma‘muriy, fuqarolik, jinoiy javobgarlikni amalga oshirayotganda tibbiy xatolarning oldini olish bo‘yicha o‘z faoliyati natijalarini tahlil qilish tayyorligi va amalga oshirishi;
  - davolash profilaktika muassalari bo‘limlaridan qabul qilingan nosteril tibbiy asbob anjomlarni va bikslarni ro‘yxatga olish;

- zararsizlantirishning turli usullari, zararsizlantirish xonasi texnika xavfsizligi, avtoklavlarni turlari, tuzilishi, ishlash tartibi, ish jarayonida avtoklav ko‘rsatkichlarini bilishi, dezinfeksiya vositalarini tayyorlashda xavfsizlik choralari va dezinfeksiya vositalari bilan zaharlanishda birinchi yordam ko‘rsatishni bilishi lozim;
- davolash profilaktika muassalari bo‘limlaridan qabul qilingan nosteril tibbiy asbob anjomlarni va bikslarni ro‘yxatga olish;
- zararsizlantirishning zamonaviy usullari;
- zararsizlantirish bo‘limida texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish;
- davolash profilaktika muassalarining bo‘limlaridan qabul qilingan nosteril tibbiy asbob-anjomlarni va bikslarni ro‘yxatga olishdagi, zararsizlantirish oldi tozalov ishlarini hisobga olish jurnalini, bug‘li va issiq havoli sterilizatorning ishini va tarqatilgan steril bikslarni hisobga olishda meyoriy hujjatlarni yuritishni bilish;
- avtoklavlarni turlari, tuzilishi ishlash tartibi ish jarayonida avtoklav ko‘rsatkichlari: bosim, haroratni nazorat qilish. Avtoklavning ish jarayoniga bog‘liq bo‘lgan meyoriy hujjatlar. Avtoklavni ish jarayonida sinamalarni (indikator)nazorat qilishni;
- sanitariya-epidemiologiya xizmati va tartiblariga oid meyoriy huquqiy hujjatlarni yuritilishini bilishi va rioya qilishi;
- markaziy zararsizlantirish bo‘limlarida asbob-anjomlarni sanitariya qoida va meyorlar talabiga asosan zararsizlantirish va nazoratdan o‘tkazish;
- zararsizlantirilganlikni nazorat qilish uchun qo‘llaniladigan ichki va tashqi sinamalar va termotestlarni o‘rganish;
- asbob uskunalari, bog‘lov va boshqa materiallarni zararsizlantirishga tayyorlash va ularni natijalarini tahlil qilish.

### 3. DASTUR MAZMUNI

#### 3.1 “Sterilizatsiya hamshirasi” 216 kredit ixtisoslashtirish kursi dasturi o‘quv rejasi

	Kredit	Auditoriya mashg‘ulotlari	Atte
--	--------	---------------------------	------

№	Modul va mavzular nomi		Nazariy mashg'ulot		Amaliy mashg'ulot	Seminar
<b>1.0</b>	<b>Kasbiy rivojlanish moduli.</b>	<b>54</b>	<b>32</b>	<b>22</b>		
1.1	Modul: O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati. Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish.	6	6	-		
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4		
1.3	Modul: Xorijiy til.	6	2	4		
1.4	Modul: Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi meyoriy hujjatlar.	6	6			
1.5	Modul: Infekcion nazorat	6	4	2		
1.6	Modul: Shaxslar o'rtasidagi muloqat va tibbiy maslahat	6	4	2		
1.7	Modul: Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	6	2	4		
1.8	Modul: Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.	12	6	6		
<b>2.0</b>	<b>Mutaxassislik fani moduli.</b>	<b>156</b>	<b>56</b>	<b>100</b>		
2.1	Modul: Markaziy sterilizatsiya xonalariga qo'yiladigan talablar va sanitar meyoriy hujjatlar. Texnika xavfsizligi.	30	12	18		
2.2	Modul: Tibbiy asbob va anjomlarni zararsizlantirishda zamonaviy usullar. Sterilizatsiya sifatini tekshirish usullari	48	16	32		
2.3	Modul: Avtoklavlarni turlari, tuzilishi ishlash tartibi ish jarayonida avtoklav ko'rsatkichlari. Avtoklav bilan ishlashda "Texnika xavfsizligi".	48	18	30		
2.4	Modul: Sterilizatsiya xonasida yuritiladigan meyoriy huquqiy hujjatlar. Sterilizatsiya nazorati.	30	10	20		
	<b>Attestatsiya</b>	<b>6</b>				<b>6</b>
	<b>Jami:</b>	<b>216</b>	<b>88</b>	<b>122</b>		<b>6</b>

**“Sterilizatsiya hamshirasi” ixtisoslashtirish kursi o‘quv modullarining mazmuni**

**1.1.Modul. O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati. Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish. O'zbekiston**

Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko'rib chiqish va Vazirlar Mahkamasining yaqin va istiqbolga mo'ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishidagi nutqida belgilab berilgan. Sog'liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to'liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar. O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari. Yangi O'zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim. Islohotlar markazida "Inson qadri uchun" degan ezgu tamoyil ustuvor. Yurtimizda aholiga ko'rsatilayotgan tibbiyot xizmatlari sifatini jahon standartlari darajasiga olib chiqish maqsadida halqaro tajribani chuqur o'rganish va amaliyotga samarali tatbiq etish borasida olib borilayotgan ishlar. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo'nalishlarning mazmun-mohiyati.

"Aholi salomatligi-2030" milliy strategiyasining ustuvor yo'nalishlari, vazifalari va asosiy indikatorlari. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida shakllangan milliy qonunchilik tizimi, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari hamda sog'liqni saqlash tizimida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar. Davlat siyosatining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi asosiy yo'nalishlari. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatchilarining mas'uliyatini oshirish, raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirish, ochiq ma'lumotlar tizimini rivojlantirish va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirish.

**1.2. Modul Tibbiyotda raqamli texnologiyalar.** Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, tibbiy statistik ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo'llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish.

Internet tarmog'ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilishi kerak. "Tibbiyot informatikasi asoslari" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyot informatikasi asoslari, tushunchalari va tasavvurlarining umumiyliigi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalalarini yechishda informatikaning o'rni;

hozirgi zamonda informatikaning o'rni va roli, ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish

**1.3. Modul. Xorijiy til.** Ingliz tilini o'qitishning maqsadi va vazifalari Tibbiyot xamshiralari ingliz tilini tanishtirish va tibbiyot soxasiga aloqadorligini

tushuntirish xamda shu soxaga oid terminlarni o'rganish. Ingliz tili alifbosidagi xarflar va asosiy qo'llaniladigan terminlar. The verb "to be", "to have" Introducing yourself. Tana a'zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko'p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Tana a'zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko'p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Ularni og'zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o'rgatish va qo'llash. Tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Ularni og'zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o'rgatish va qo'llash. Berilgan qo'llanmalardan foydalangan xolda (At the doctor) mavzularida tinglovchilarni og'zaki nutqini rivojlantirish

**1.4. Modul. Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi meyoriy hujjatlar.** Sog'liqni saqlash tizimini Davlat dasturlari, sog'liqni saqlash tizimi islohotlariga oid Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni asosiy yo'nalishlari. Birlamchi tibbiy sanitariya yordamini isloh qilish. Onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini milliy modulini yaratish. Shoshilinch tibbiy yordamni samarali va to'liq tizimini yaratish. Aholiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni rivojlantirish. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasalliklarga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish. Sog'liqni saqlash tizimida yangi davr. Tibbiyot kadrlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish. Respublikada epidemiologik barqarorlikka erishish va uni ushlab turish. Davlat xususiy - sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida islohotlarning mazmun mohiyati. Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari. Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi moduli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmining huquqiy asoslari. Sog'liqni saqlash tizimidagi meyoriy hujjatlar.

**1.5. Modul. Infekcion nazorat.** Infeksiya haqida tushuncha. Epidemiologiya asoslari. Infekcion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi. SanQvaM -0342-17, SanQvaM- 0317-15. Sanitariya epedimiologiya sohasida qo'llaniladigan meyoriy hujjatlar. Ularning maqsadi, aholi salomatligini saqlash, kasallanishlarning oldini olish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish. Sanitariya qoida va meyorlari bo'yicha ish olib borish. Tibbiy chiqindilarni yig'ish, saqlash va yo'q qilish.

Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar haqida umumiy ma'lumotlar. Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar guruhiga kiruvchi kasalliklar, ularning profilaktikasi. O'ta havfli yuqumli kasalliklar aniqlanganda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar rejasi. OIV va OITS haqida tushuncha. Avariya holatlar haqida ma'lumot.

Davolash profilaktika muassasalarida yuqumli kasalliklarning oldini olish va kamaytirishga qaratilgan profilaktika hamda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o'tkazish. SanQvaM bo'yicha joriy va mukammal tozalash o'tkazish. Qo'llarga gigienik ishlov berish usullari, texnikasi va qo'llarni yuvish tartibi.

**1.6. Modul. Shaxslar o'rtasidagi muloqot va tibbiy maslahat** Jamiyat va bemorning salomatligi yo'lida halol mehnat qilish, har qanday sharoitda ham tibbiy yordam ko'rsatish. Bemorga diqqat e'tibor va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lish va o'zining barcha xatti-harakatlarida yuksak insoniy qoidalarga rioya qilish. Jamoada, individual va turli guruhlarda shaxslararo muloqot madaniyati. Kasbning oliyjanob an'analarini saqlash. Zamonaviy tibbiyot amaliyotida sezilarli e'tibor tibbiyot xodimlarining kasbiy ko'nikmalariga, bemorlar bilan ularning gender va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda muloqot qilish qobiliyatiga qaratilmoqda. Genderning salomatlikka ta'siri. Genderga sezgir tibbiy maslahat va aloqa to'g'risida tushuncha. Ichki madaniyat qoidalari, intizomga rioya qilish. Jamoat mulki tushunchasi va unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish. Hamjihatlik va kollegiallik tuyg'ulariga rioya qilish. Neytral va xavfsiz muhitni yaratish. Salbiy munosabat va fikrlardan qochish. Tibbiy maslahatni hurmat va e'tibor bilan boshlash. Faol tinglash va empatiya. Tushunarli tildan foydalanish. Tibbiyot xodimining bemor bilan muloqot qilish qobiliyati. Muloqot ko'nikmalarining turlari va ularning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligi. Tibbiy maslahatning asosiy tuzilishi va ko'nikmalarining o'zaro bog'liqligi. Tibbiy maslahatni tartiblashtirish. Noverbal tildan foydalanish. O'zaro tushunishga erishish: bemorning holatini inobatga olish. Samarali muloqotning xususiyatlari

**1.7. Modul. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik.** Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

**1.8. Modul. Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.** Favqulotda vaziyatlar haqida tushuncha. Favqulotda vaziyatlar tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, manbalari. Jabrlanuvchilarni saralash tartibi. Tibbiy saralash (trijaj usuli) va evakuatsiya qilish. Jabrlanuvchini ahvolini baholash, asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni (nafas, puls, ong, AD) aniqlash. Birlamchi tekshiruv (ABC algoritmi). Bemor uchun zarur vaziyatni yaratish. Terminal holat. Terminal holat bosqichlari. Terminal holat bosqichlari. Klinik va biologik o'lim belgilari. CPR – yurak-o'pka reanimatsiyasining nazariy asoslari. Kattalar va bolalarda yurak massaji va sun'iy nafas berishni o'tkazish algoritmi.

Tez tibbiy yordam chaqirish tartibi. Travmalar va o'tkir holatlarda birinchi yordam ko'rsatish tamoillari. Qon ketish turlari va jgut qo'yish. Sinish, chiqish, immobilizatsiya. Shok holati. Kuyish, cho'kish sovuq va issiqlik urishi. Transportirovka qoidalari.

**2.1 Modul. Markaziy sterilizatsiya xonalariga qo'yiladigan talablar va sanitar meyoriy hujjatlar. Texnika xavfsizligi.** Markaziy sterilizatsiya xonalariga qo'yiladigan talablar. Xonalarni o'ziga xos ta'mirlanishining ahamiyati. Xonalarni ichki pardozi, tabiiy va sun'iy yoritilishi, isitilishi, ventilyatsiyasi, mikroiklimi, havo muhiti, suvta'minoti va kanalizatsiyaga bo'lgan talablarining ahamiyati. Markaziy sterilizatsiya bo'limining tuzilishi, tarkibiy qismlari, ishlash tartibi. Qabulxona, yuvish xonasi, qadoqlash xonasi, sterillash xonasi, ekspeditsiya xonalarini jihozlanish meyorlari. Sterilizatsiya bo'limining steril, nosteril zonalari, ularning vazifasi. Markaziy sterilizatsiya bo'limlarining asbob va anjomlar bilan jihozlanishi. Jihozlarga qo'yilgan talablar. Sterilizatsiya bo'limi hamshirasining lavozimlik burchlari va huquqlari. Sterilizatsiya bo'limidagi yuritiladigan meyoriy hujjatlar. Aseptika va antiseptika to'g'risida tushuncha. Antiseptikaning mexanik, fizikaviy, kimyoviy, biologik turlari. Antiseptik moddalarning guruhlari. Zararsizlantirish bo'limlarida zamonaviy zararsizlantirish apparatlari, ular bilan ishlash. Zararsizlantirish usullari. Zararsizlantirish xonasi texnika xavfsizligi qoidalari. Dezinfeksiya vositalarini tayyorlashda xavfsizlik choralari va dezinfeksiya vositalari bilan zaharlanishda birinchi yordam ko'rsatish. Avtoklavlar turlari, tuzilishi, ishlash tartibi. Avtoklav ko'rsatkichlarini ish jarayonida ahamiyati. Mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish.

**2.2 Modul. Tibbiy asbob va anjomlarni zararsizlantirishda zamonaviy usullar. Sterilizatsiya sifatini tekshirish usullari.** Tibbiy asbob va anjomlarni zararsizlantirish usullari. Sterilizatsiyadan oldingi tozalash tadbirlari. Tibbiy buyumlarni sterilizatsiya oldi tozalash va sifatini nazorat qilish. Sinamalarni qo'yish uchun reaktivlarni tayyorlash. Sterilizatsiya jarayoni. Tibbiy asboblarni dezinfeksiyalash tartibi. Zararsizlantirish jarayoni, dezinfeksiyalash tushunchasi. Zamonaviy dezinfeksiya vositalarini ishlatish qoidalari. Dezinfeksiylovchi eritmalarni tayyorlash tartibi. Zararsizlantiruvchi vositalar bilan ishlaganda xavfsizlik choralari. Hamshiralarning shaxsiy himoyasiga bo'lgan talablar. Zararsizlantirish bo'limida joriy va mukammal tozalash qoidalari va o'tkazish tartibi. Zararsizlantirishdan oldin tozalash usullari. Yuvuvchi eritmani tayyorlash qoidalari. Tibbiy asbob-anjomlarni qo'l bilan olti bosqichli yuvish afzalliklari va kamchiliklari. Tibbiy asbob va anjomlarni zararsizlantirishda zamonaviy usullar. Zamonaviy fizikaviy sterilizatsiya usullari. Glasperlenli usulni qo'llash qoidalari. Nur bilan sterillashni afzalliklari. Zamonaviy ultratovush apparatida yuvish tartibi. Zararsizlantirish va uning turlari. Gazli sterilizatsiya. Plazmalı va ozonli sterilizatsiya usullari. Tibbiy vositalar, asboblari, buyumlar, bog'lov vositalari, kiyim-kechaklar, oqliklar, metall tibbiy asboblarning sterilizatsiyasi. Dorixonada foydalaniladigan vositalar va dorilarning sterilizatsiyasi. Sterilizatsiya sifatini tekshirish usullari. Tibbiy asboblarni tozalik sifatini tekshirish usullari. Sinamalarni qo'llash.

**2.3 Modul. Avtoklavlarni turlari, tuzilishi ishlash tartibi ish jarayonida avtoklav ko'rsatkichlari. Avtoklav bilan ishlashda "Texnika xavfsizligi".** Avtoklav bilan ishlashda maxsus ixtisoslashtirishdan o'tgan hamshiraning o'z vazifasiga loyiqqligini aniqlash va attestatsiyadan o'tkazilishining ahamiyati. Avtoklavlar, tuzilishi va ishlash tartibi. Avtoklavlarni qurilishi va ishlash prinsipi bo'yicha turlari. Avtoklavdan foydalanishni umumiy qoidalari. Avtoklavlarni qabul qilish, o'rnatish va turli usullar bilan ish jarayonini sinash. Monometr va xavfsizlik klapanlariga qo'yilgan talablar. Avtoklav kamerasiidagi haroratini aniqligini, sterilizatsiya kamerasining germetik holatini tekshirish. Avtoklavda ishlashda mehnatni muhofaza qilish qoidalari. Avtoklavlarni ishlatishdauning qabul qilingan pasporti va metriologiyasi bo'yicha hamda belgilangan maqsad uchun foydalanish qoidalari. Avtoklavlar o'rnatilgan xonaga qo'yiladigan talablar. Avtoklavdan foydalanish bo'yicha eslatma va uning tarkibiy qismlari. Avtoklav bilan ishlashda texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilishning ahamiyati. (avtoklavning ishlashga yaroqligi, qoidaga binoan o'rnatilganligi, elektr va suv bilan ta'minlanganligi, uning yerga ulanganligi, ishlash davrida harorat va bosimini nazorat qilish)

**2.4 Modul. Sterilizatsiya xonasida yuritiladigan meyoriy huquqiy hujjatlar. Davolash profilaktika muassasalarda dezinfeksiya va sterilizatsiya qilish tadbirlarini tashkil etish.** Markaziy sterilizatsiya bo'limlarida ishlaydigan tibbiy xodimlarga qo'yiladigan talablar, ularning huquq va vazifalari. Sterilizatsiya ishlariga oid meyoriy huquqiy hujjatlar va shifoxona ichi infeksiyalarining oldini olishda ularning o'rni. O'zR SanQvaM №0342-2017 va O'zR SanQvaM №0365-19larning mohiyati. Sterilizatsiya bo'limida yuritiladigan hisob-kitob jurnallari. Bo'limlaridan qabul qilingan nosteril tibbiy asbob-anjomlar, bikslarni, zararsizlantirish oldi tozalov ishlarini hisobga olish jurnallarini yuritish tartibi. Bug'li, issiq havoli sterilizatorning ishini va tarqatilgan steril bikslarni hisobga olish, bakteriotsid lampaning ishlashini va mukammal tozalov ishlarini ro'yxatga olish jurnallari. Zararsizlantirilganlikka tekshirish bo'yicha bakteriologik nazorat natijalarini hisobga olish jurnali. Bo'limlarda steril biksni ochgandan so'ng belgilangan va ichki test-indikatorlarni yopishtirilgan ro'yxat jurnallarining yuritilishi. Metall asboblarni, shisha idishlarni, bog'lov vositalarni zararsizlantirish usullari. Optik tibbiy asboblarni zararsizlantirish. Dorixonada foydalaniladigan vositalar va dorilarning sterilizatsiyasi. Stomatologik asbob-anjomlarni zararsizlantirilishi (pinset, zond, shpatel, ekskavator, shtopfer, stomatologik oynalar, endodontik asbob-anjomlar, stomatologik qisqich, kyuretaj qoshiqcha, elevatorlar, iskanalar, implantologiya uchun asbob-anjomlar to'plami, skalpellar, korsanglar, qaychilar, qisqichlar, jarrohlik tekislagichlari). Termolabil va polimer vositalarni dezinfeksiyalash va sterillash usullari. Endoskoplar, narkoz apparatlari, bronxoskop, laringoskoplar va boshqalar rezina vositalarni dezinfeksiyalash va sterillash usullari. Narkoz-nafas oldirish, anesteziologik apparatlar va va o'pka sun'iy havo aylantirish apparatlariga konstruktiv xususiyatlariga qarab ikkita usulda bloklab va yig'ilgan holda ishlov berish. Laringoskoplarni plazmali, gazli yoki yuvuvchi zararsizlantirish dori vositalari yordamidatozalash. Steril va nosteril endoskopik aralashuvlarda

zararsizlantirish bosqichlari. Zamonaviy zararsizlantirilganlik sifatini fizikaviy, kimyoviy, biologik tekshirish usullari. Zararsizlantirish sifatini kimyoviy usul bilan tekshirishda qo'llaniladigan kimyoviy test-reaktivlar va ularni xususiyatlari. Kimyoviy tashqi va ichki test-indikatorlar turlari va qo'llash usullari. Zamonaviy zararsizlantirishning sifatini biologik usul bilan tekshirish, unda qo'llaniladigan testlar, usulni qo'llashda o'ziga xos ehtiyot choralari. Zararsizlantirish sifatini tekshirish usullarining afzallik va kamchiliklari. O'ramlarni turlari va tibbiy asboblarni sterilligini saqlanish muddatlari.

#### **4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK TA'MINOTI**

**4.1. O'quv bazalari:** Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Shifokorlar ko'chasi-2, 14-uy. Davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

**Amaliyot bazasi:** davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

**4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar ro'yxati:**

Modul bo'yicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari.

Multimediali jamlanma: slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar, CD diskda ko'rgazma materiallari, ekran, videofilmlar.

Klinik amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash trening o'quv xonasi, mulyaj, fantom v.b jihozlar.

Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar,

**4.3. Tavsiya etilgan adabiyotlar**

**4.3.1. Qonunchilik va meyoriy-huquqiy hujjatlar:**

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari.

2.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligining buyruq va meyoriy hujjatlari.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2018 yil 7dekabrdagi "2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasining Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi farmoni.

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyovning 2020yil 12noyabrdagi "Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risid"agi farmoni.

5.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2020yil 12noyabrdagi "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora- tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

6.O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni. 2017 yil 3yanvar

7.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil10noyabrdagi "Aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ 4887-sonli qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18 dekabrda “Yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab – quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4063-sonli qarori.

**Asosiy adabiyotlar:**

- 1.«Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi» №0342-17. Davolash-profilaktika muassasalarida dezinfeksiya va sterilizatsiya qilish tadbirlarini tashkil etish. 2017yil.
- 2.Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi bo‘yicha o‘rta tibbiyot xodimlari uchun o‘quv-dasturi qo‘llanma. 2017yil.
- 3.Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi bo‘yicha o‘rta tibbiyot xodimlari uchun o‘quv uslubiy qo‘llanma. Tashkent. 2019yil.
- 4.Umarova T.YU “Hamshiralik ishi”. Toshkent, «Abu Ali ibn Sino», 2003yil.
- 5.O‘zbekiston Respublikasi sanitariya qoidalari, meyorlari va gigiyenik normativlari. O‘zR SanQvaM № 0365 -19.
- 6.Tibbiy anjom-asboblardan buyumlarni sterilizatsiya qilish markazlarini loyihalashtirish, qurish va ekspluatatsiya qilish sanitariya qoidalari va meyorlari. O‘zR SanQvaM № 0365.

**4.3.2. Elektron ta’lim resurslari**

[www.minzdrav.uz](http://www.minzdrav.uz)–

[www.gov.uz](http://www.gov.uz)

[www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)

[www.parlament.gov.uz](http://www.parlament.gov.uz)

[www.uza.uz](http://www.uza.uz)

[www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)-

[www.lex.uz](http://www.lex.uz)

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[www.medi.ru](http://www.medi.ru),

[www.medlinks.ru](http://www.medlinks.ru),

[www.medscape.com](http://www.medscape.com),

[www.medland.ru](http://www.medland.ru),

[www.med-lib.ru](http://www.med-lib.ru),

[www.ksmed.ru/pat/gynecology](http://www.ksmed.ru/pat/gynecology),

[www.medsan.ru](http://www.medsan.ru),

**5.YAKUNIY ATTESTATSIYA**

**5.1. Yakuniy attestatsiyaga qo‘yiladigan talablar.**

Yakuniy attestatsiya O‘zR SSVning 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug‘i 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta’lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini baholash to‘g‘risidagi Nizom» ga asosan o‘tkaziladi.